



KORXONALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING NAZARIY- KONSEPTUAL JIHATLARI VA TA'MINLASH OMILLARI

Yusupov Bekzod Ulug'bekovich

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Korxonalarni barqaror rivojlantirish hozirgi paytda eng muhim masalalar, bugungi kunda mamlakatimizda korxonalarni barqaror rivojlantirish eng muhim va dolzarb muammolari, bu muammolarni bartaraf qilish uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish natijasida tayyorlangan taklif va tavsiyalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. *yashil iqtisodiyot, tabiat, imkoniyat, savdo imkoniyatlari, ekologik xizmat, foydalanish, savdo-sotiq, korxonona, tashkilot, muassasa, iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish.*

Аннотация.

В данной статье говорится о важнейших вопросах устойчивого развития предприятий, наиболее важных и актуальных проблемах устойчивого развития предприятий в нашей стране сегодня, предложениях и рекомендациях, подготовленных в результате изучения опыта развитых стран по устранению этих проблем.

Ключевые слова. *зеленая экономика, природа, возможность, торговые возможности, экологическая услуга, использование, торговля, предприятие, организация, институт, экономическая стабильность, экономический рост.*

Abstract.

This article talks about the most important issues of sustainable development of enterprises, the most important and urgent problems of sustainable development of enterprises in our country today, suggestions and recommendations prepared as a result of studying the experience of developed countries to eliminate these problems.



Keywords. *green economy, nature, opportunity, trade opportunities, environmental service, use, trade, enterprise, organization, institution, economic stability, economic growth.*

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotin yana ham jadallashtirish, ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanish, resurslarning hamma turlarini har tomonlama tejash va ishlab chiqarishni boshqarishning bozor iqtisodiyoti qonunlariga mos ravishda olib borish mamlakatimiz iqtisodiy strategiyasining eng muhim tarkibiy qismidir. Bugungi kunda mamlakatimizda korxonalarni barqaror rivojlantirish eng muhim va dolzarb muammolardan biridir.

Korxonalarni barqaror rivojlantirish hozirgi paytda eng muhim masalalardan biridir. Korxonalarni tubdan yaxshilash yuqorida aytilganidek, aloxida kategoriya sifatida jamiyatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga ta'sir ko'rsatib, fuqarolar hayotining, shuningdek, davlatning muayyan tarixiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini aks ettiradi.

Korxonalarni barqaror rivojlantirishda "yashil iqtisodiyot"ning o'rnini mohiyatan tahlil etib, iqtisodchi-olimlar unga o'z vaqtida turlicha ta'rif berganlar. Vaqt o'tishi bilan korxonalarni rivojlantirish mohiyati to'g'risidagi tasavvurlar takomillashib bormoqda.

Shu bilan birga iqtisodiy kategoriya sifatida "korxonalarni barqaror rivojlantirish" tushunchasi, ko'plab hollarda "barqaror iqtisodiy rivojlanish", "iqtisodiy barqarorlik", "iqtisodiy o'sish" deb tushunish mumkin bo'ladi. Yevropa adabiyotlarida, barqaror korxonalar sifatida, daromadning me'yoriy darajasiga erishgan yoki bozordagi foydaning kata qismiga ega chiqishni o'ziga ta'minlay oladigan korxonalar sifatida namoyon bo'ladi.

Barqaror rivojlanish iqtisodiy tizimning aniq bir obyektini bilan bog'liq bo'lib, shunga mos ravishda makro-, mezo-, va mikro- darajalarda tadqiqi qilish mumkin. Barqaror rivojlanishning mohiyatini tushunish-bu uni ishonchli baholash va ilmiy boshqaruvning asosini tegishli darajadiligini o'zida namoyon etadi. Barqaror



rivojlanish tushunchasi iqtisodiy, ishtimoiy, ekologik, va siyosiy omillarga bog‘liq bo‘lgan o‘zaro munosabatlarni tadqiq qilishni talab qiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda barqaror rivojlanishning ko‘plab ta‘riflari keltirilgan. Xususan K.R.Grishagov [1]ning fikriga ko‘ra “Barqarorlik” - bu korxonalarining turli o‘ziga xos jihatlarini hisobga olishi kerak bo‘lgan keng qamrovli kompleks kategoriyadir. Barqarorlik bu - tizimning o‘zgaruvchan muhit ta‘siri ostida o‘ziga xos xususiyatlarini, sifatini saqlab qolish qobiliyatidir. Lekin ma‘lum bir tushunchalarni ajratib olish lozim. Bular “Korxonaning barqarorligi” va “Sanoat korxonasining barkaror rivojlanishi” tushunchalaridir. Shu bilan birga, sanoat korxonasining barqarorligi bu korxonaning statsionar ya‘ni o‘zgarmas holatida biznes jarayonlarining yuqori sifatli va samarali ko‘rsatkichlari bilan ajralib turishiga aytiladi. Shuningdek korxonalar xar doim o‘zgaruvchan tashqi muhitning ta‘siri natijasida ushbu ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

Barqaror rivojlanish-bu ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatning joriy va kelajakdagi qiymatining salohiyatini oshirishda texnologik rivojlanishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning yo‘nalishlari va resurslardan oqilona foydalanish jarayonidagi o‘zgarishlardir-deya takidlagan T.V.Uskova o‘z fikrlarini bildirganlar.

O.L. Kuznetsov[2] esa barqaror rivojlanish-bu hozirgi va kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirishning uzluksiz jarayonidir. Barqaror rivojlanish ikkita yo‘nalishdagi tushunchalarni o‘z ichiga oladi: birinchidan, zarur ehtiyojlar va imkoniyatlarni saqlash va rivojlantirish zaruriyati, ikkinchidan, kompaniyaning texnologik xolatini qondirishda cheklangan ehtiyojlarni qondirish zarurati, deya ta‘riflaganlar.

Boshqa adabiyotlarda, ya‘ni I.V.Rozenberg [3], G.I.Krasnoshekov, Yu.M.Krilovlar “Barqaror rivojlanish bu – qo‘llab-quvvatlanadigan iqtisodiy rivojlanish bo‘lib, kelajak avlodlar uchun mavjud resurslarning so‘nib borish xavfiga ta‘sir ko‘rsatmaslikdir” deya ta‘rif berganlar.



I.I.Sigov [4] esa “barqaror rivojlanish- bu hozirgi ehtiyojlarga javob beradigan, ammo kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga xavf solmaydigan o‘shishdir”- deya tariflaganlar. Ta’riflardan yoki olimlarning o‘z fikrlaridan umumiy xulosa qilish mumkinki olimlar bir biriga yaqin fikirlarni berishgan.

Fikrimizcha, “Barqaror rivojlanish bu-ishlab chiqarish jarayonining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydigan ichki va tashqi omillarga moslashuvchan bo‘lgan iqtisodiy foyda keltiruvchi xolatdir”. Sababi omillarning ta’siriga to‘g‘ri munosabat bildiradi oladigan korxonalar doimiy ravishda barqaror xolatda o‘z faoliyatini olib borishi mumkin.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish barqaror oqtisodiy o‘shishni o‘zida namoyon etishdir. Barqaror iqtisodiy rivojlanish bu uzoq vaqt davomida korxonadagi iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni tashkil etuvchi tizimdagi elementlarning ijobiy o‘shishi hamda muvozanatni o‘zaro ta’siri natijasida ketma-ketlikda yaxshilanishdir.

Korxonalarining barqaror rivojlanishi maxsulotlarni islab chiqarishning o‘shishi, iqtisodiy va tabiiy resurslardan samarali foydalanishi, aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish, barqaror va muvozanatli ekologik vaziyatni hisobga olish bilan uzviy bog‘liqdir. Faqatgina iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy va ekologik xususiyatlarning muvozanati bilan sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

1.1-jadval

Barqaror rivojlanish tushunchasining turli yo‘nalishlarda qo‘llanilishi[5]

Qo‘llanilish yo‘nalishi	Tushunchaning tarkibi
Barqaror rivojlanish tamoyil sifatida	Bu shuni anglatadiki, ya’ni ikki yirik guruhga ajratilgan harakatlar va qarorlar aniqlanadi: birinchi guru barqaror rivojlanishga olib keladigan harakatlar va qarorlarni birlashtiradi; ikkinchi guruh esa aksincha barqaror rivojlanishni ta'minlamaydigan harakatlar va qarorlarni birlashtiradi.



	Birinchi guruh tarkibidagi harakatlar va qarorlarni saqlab qolish va rag‘batlantirish zarur. ikkinchi guruh tarkibidagi harakatlar va qarorlarga esa tuzatishlar kiritish hamda o‘zgartirish xususida aniq bir qaror qabul qilish talab etiladi.
Barqaror rivojlanish strategiya sifatida	Ma‘lum bir uzoq muddatli valiyatning bir elementi bo‘lib, bu ma‘lum parametrlar, xarakatlar, vazifalar, resurslardan foydalanish va boshqalarni qo‘llashdan iboratdir. Bu esa joriy holatdan kelajakka qadar muvozanatni ta‘minlaydi. Yakunda harakatlardagi pasayishlarga qaramay joriy holatdagiga nisbatan yaxshiroq holatga olib keladi
Barqaror rivojlanish taktika sifatida	Bu ma‘lum bir kichik davrdagi muvozanatdagi holatdan qisqa muddat ichida tezroq o‘shish hisobiga yanada yaxshiroq holatga chiqishdir
Barqaror rivojlanish funktsiya sifatida	Bu institutsiyonal, ijtimoiy va ekologik omillar kabi yangi parametrlarni o‘z ichiga olish hisobiga ishlab chiqarish funksiyalarini kengaytirish yoki mukammallashtirishni anglatadi.
Barqaror rivojlanish jarayon sifatida	Ma‘lum bir vaqt davomida korxonalar faoliyatini tavsiflovchi miqdoriy va sifatli ko‘rsatkichlaridagi ijobiy o‘zgarishlarni nazarda tutadi va shu bilan bir qatorda faoliyatdagi salbiy ko‘rsatkichlar kamayib boradi.
Barqaror rivojlanish natija sifatida	Innovatsiyalarni amalga oshirish, texnologik rivojlanish sharoitida jamiyat ehtiyojlarini qodirish sifatida oshirish, jamiyatni tashkil etish, jamiyat va tabiiy resurs bazasini tashkil etish bilan bog‘liq tarkibiy o‘zgarishlarning natijasidir.

Korxonalaridagi barqaror rivojlanishning asosiy mezonlari axolining ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ta‘minlashdan iborat. Korxonalarining barqaror rivojlanishining ijtimoiy tomondan tarkibiy qismi, bu xayot darajasi va sifatini oshirish, demografiya va migrasiya bilan



bog'liq bo'lgan jarayonlarning barqarorlashtirilishini o'z ichiga oladi. Korxonalarining barqaror rivojlanishining iqtisodiy tomondan tarkibiy qismi, bu korxonaning samarali faoliyat yuritishi bilan bog'lik bo'lgan jarayon hisoblanadi. Shu bilan birga, atrof-muhitdan oqilona foydanish va tabiiy resurslarni saqlash bilan bog'liq jarayonlar bu korxonalarining ekologik barqarorligini ta'minlashga zamin yaratadi.

1.2-jadval

Korxonalarni turli belgiga qarab tasniflanishi]

Korxonalar shaklariga ko'ra belgilar	Korxonalar turlari
Mulk shakliga qarab	davlat korxonalari; jamo'a korxonalari; aralash korxonalari; shaxsiy korxonalari mumkin.
Xo'jalik yuritish shakllariga ko'ra	Xo'jalik yuritish shakllariga ko'ra korxonalar shaxsiy xamkorlikda olib boruvchi (1 kishi yoki oila), qo'llab-quvvatlashni cheklangan ochik Aktsionerlik Jamiyati va boshqa shakldagi korxonalariga bo'linadi.
Faoliyat maqsadlariga ko'ra	Faoliyat maqsadlariga ko'ra foyda olishni maqsad qilib olgan ishlab chiqarish, tijorat va boshqa korxonalar hamda foyda olishni maqsad qilmagan, balki ijtimoiy samarani-xomiylik, xayriyalik, beg'araz yordamni maqsad qilib qo'ygan korxonalariga bo'linadi.
Boshlash shartiga qarab	kichik korxonalarni; o'rta korxonalarni; yirik korxonalarni,
Faoliyat miqyosiga qarab	-xalkaro, ya'ni boshqa davlatlarda filiallarga tegishli -mlakat miqyosida yurituvchi; -lokal ya'ni 1 punktda joylashgan, yurituvchi korxonalarni ajratish mumkin.



Tarmoq tarkibiga qarab	-tarmoqlararo, -tarmoq ichida yurituvchi korxonalarni farqlash mumkin.
------------------------	--

Bozor munosabatlarining boshlang'ich bo'g'ini sifatida korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari bor, ulardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz:

1- xususiyat. Korxonalar mustaqil bo'lib, ushbu mustaqillik:

a) ishlab chiqarish va mahsulot sotishning raqobat xajmini aniqlash hamda tovar assortimentining tarkibini bozordagi talabga va taklifga qarab mustakil belgilashda;

b) shartnomalar tuzish tovar va xom-ashyo yetkazib beruvchilarni, xaridorlarni, vositachilarni mustakil tanlashda;

v) amaldagi qonunchilik doirasida baholarni mustaqil belgilashda;

g) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langach, qolgan foydani mustaqil taqsimlash, daromadlarni va xarajatlarni mustaqil rejalashtirishda;

d) ishchi-xizmatchilarni mustakil tanlash va joy-joyiga qo'yishda;

2-xususiyat. Mulk va ishlab chiqarish vositalariga xukmronlik, egalik xususiyati.

Bu uch narsada namoyon bo'ladi.

1-dan, ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqargan maxsuloti, daromadiga mulkdor bo'lib ulardan o'z xoxishicha foydalanadi.

2-dan, to'la xo'jalik xisobi asosida yuridik shaxs huquqlari va burchlari miqiyosida faoliyat yuritadi.

3-dan, davlat korxonalari mulk emas, mulkiy vositalar, resurslarni operativ boshqarib borish orqali xo'jalik faoliyatini amalga oshiradi. Ular xususiy korxonalaridan farqli ulardan, mulkni sotish, qarz o'rniga to'lash, boshqa mulk bilan qo'shish kabi mulkiy ahamiyatga loyiq ishlarni tashkilotlar ruxsatsiz amalga oshira olmaydi.

3-xususiyat. Korxonalar faoliyatining davlat tomonidan u yoki bu yo'nalish sari yo'naltirilishi. Ularning asosiy qurollariga:

– soliqlar va ularning tabaqalanishi;



- tabiiy resurslardan foydalanish uchun to‘lanadigan haq;
- xarajatlar (masalan,ammortizatsiya) va tabiiy kamayish me‘yorlari;
- valyuta kursi;
- bojxona to‘lovlari;
- ekologik me‘yorlar va atrof muxitga tashlangan chiqindi uchun to‘lanadigan haq;
- ijtimoiy haq;
- monopoliyaga qarshi kurash tartibi;
- davlat standartlari va texnik shartlar kabi vositalar kiradi.

Korxonalar barqaror rivojlanishining nazariy-kontseptual jihatlarini va omillari atrof-muhit va ijtimoiy salbiy ta’sirlarni minimallashtirish bilan birga biznesning uzoq muddatli hayotiyli va mas’uliyatli o’sishini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli tamoyillar, asoslar va strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu yerda biz ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan ba’zi asosiy fikrlarni keltirdik:

Uch tomonlama yondashuv: Korxonalarda barqaror rivojlanish ko‘pincha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan uchta jihatni: iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy tenglik va atrof-muhitni boshqarishni ko‘rib chiqadigan uch tomonlama natija yondashuvini qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Ushbu doirada moliyaviy daromadlarni ijtimoiy va ekologik omillar bilan muvozanatlash muhimligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv korxonalar nafaqat moliyaviy foydaga e’tibor qaratishlari, balki ularning ijtimoiy va atrof-muhitga ta’sirini ham hisobga olishlari kerakligini ta’kidlaydi. Iqtisodiy farovonlik korxonalarining omon qolishi va rivojlanishi uchun zarur, ammo u ijtimoiy mas’uliyat va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan muvozanatli bo‘lishi kerak.

Resurs samaradorligi: Korxonalar resurslardan foydalanishni optimallashtirish, chiqindilarni ishlab chiqarishni minimallashtirish va atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish va resurslar samaradorligini maksimal darajada oshirish uchun materiallar qayta ishlatiladigan, qayta ishlanadigan yoki qayta ishlatiladigan aylanma iqtisodiyot modeliga o‘tish orqali barqaror rivojlanishga yordam berishi mumkin.



Manfaatdor tomonlarning ishtiroki va ijtimoiy mas'uliyat: manfaatdor tomonlar, jumladan, xodimlar, jamoalar, mijozlar va investorlar bilan hamkorlik qilish ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish, ishonchni mustahkamlash va korxonalarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Korxonalar manfaatdor tomonlarning, shu jumladan xodimlarning, mijozlarning, yetkazib beruvchilarning, hamjamiyatlarning va investorlarning ehtiyojlari va tashvishlarini tinglashlari va qaror qabul qilish jarayonlariga ularning fikr-mulohazalarini kiritishlari kerak. Ijtimoiy mas'uliyat tadbirkorlik faoliyatining jamiyatga ta'sirini ko'rib chiqish va tengsizlik, qashshoqlik, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun faol choralar ko'rishni o'z ichiga oladi.

Innovatsiyalar va texnologik yutuqlar: Innovatsiyalarni qabul qilish va texnologiyadan foydalanish ekologik toza mahsulotlar, jarayonlar va biznes modellarini ishlab chiqishga imkon berish orqali barqaror rivojlanishga yordam beradi. Qayta tiklanadigan energiya, yashil ishlab chiqarish va raqamli yechimlar kabi texnologiyalar atrof-muhit izlarini kamaytirishga va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Korxonalar innovatsion mahsulotlar, xizmatlar va biznes modellarini ishlab chiqishlari mumkin, bu esa atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishni kamaytiradi, samaradorlikni oshiradi va mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondiradi. Qayta tiklanadigan energiya, energiya tejovchi texnologiyalar va raqamli yechimlar kabi texnologik yutuqlar korxonalarga xarajatlarni kamaytirish, ish faoliyatini yaxshilash va ekologik xavflarni kamaytirishga yordam beradi.

Siyosatni qo'llab-quvvatlash va tartibga solish asoslari: Hukumat siyosati, qoidalari va rag'batlantirishlari korxonalarining barqaror rivojlanish amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yashil investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari yoki emissiya savdosi sxemalari kabi qo'llab-quvvatlovchi siyosatlar korxonalarni ekologik barqaror amaliyotlarni qabul qilishga undashi mumkin.

Barqarorlikni korporativ strategiyaga integratsiyalashuvi: Barqaror rivojlanish korxonalarining asosiy strategiyalari, qadriyatlar va operatsiyalari bilan birlashtirilishi



kerak. Bu aniq barqarorlik maqsadlarini belgilash, monitoring va hisobot berish mexanizmlarini o'rnatish va biznes qarorlarini uzoq muddatli ekologik va ijtimoiy maqsadlarga moslashtirishni o'z ichiga oladi. Korxonalar o'zlarining biznes maqsadlariga mos keladigan barqarorlik strategiyalarini ishlab chiqishlari, obro'sini oshirishlari va aktsiyadorlar va jamiyat uchun uzoq muddatli qiymat yaratishlari mumkin.

Ushbu nazariy-kontseptual jihatlar va omillarni hisobga olgan holda, korxonalar barqaror rivojlanish tashabbuslarini ilgari surishlari, atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo'shishlari, ijtimoiy farovonlikni oshirishlari va uzoq muddatda o'zlarining chidamliligi va raqobatbardoshligini ta'minlashlari mumkin. Ushbu nazariy asoslar korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda "Yashil iqtisodiyot"ning rolini tushunish uchun mustahkam asos yaratadi.

Yashil Texnologiyalar: Korxonalarining qayta ishlovchi energiya, energiya saqlash, yashil transport va ekologik materiallar sohasidagi innovatsiyalar va atrof-muhit ta'sirlarini minimallashtirish orqali barqaror rivojlanishga erishmoqda. Biznes tashkilotlari yashil amallar, masalan, barqaror taminotlar, qayta ishlash va atrof-muhitni ifloslanishini kamaytirish chora-tadbirlarini, mijozlar tomonidan atrof-muhitga ehtiyoj ko'rsatilgan mahsulotlar va xizmatlar bilan mos keldirish uchun qabul qilmoqda.

Korxonalarining barqaror rivojlanishi uchun innovatsiya: Innovatsiya kompleks barqarorlik muammolariga javob berishda muhim ahamiyatga ega. Bu barqaror rivojlanishga hissa qo'shadigan yangi texnologiyalar, biznes modellari va usullar rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Tejamkor energiya, barqaror qishloq xo'jaligi, iqtisodiy islohot sohasidagi innovatsiyalar boshqa muhim yechimlariga olib kelmoqda.

Barqaror moliya va investitsiyalar: Moliya sohasi barqarorlikning ahamiyatini osonlashtirayotgan. Barqaror moliya va ta'sirning oshishini boshqarish kapitalni atrof-muhit va ijtimoiy mas'uliyatli loyihalarga yo'nalish bilan olib kelmoqda. Yashil obligatsiyalar va barqarorlik hisobotlash kabi barqaror moliya chora-tadbirlari barqaror



rivojlanish uchun fondlarni jamlash, yashil infratuzilmasini loyihalashni va mas'ul biznes praktikalarini o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Hamkorliklar: Barqarorlik muammolari bilan kurashish uchun doimiy hamkorlik talab etadi, shuningdek, hukumatlar, biznes tashkilotlari, jamiyat tashkilotlari va jamiyat. Hamkorliklar resurslarni va tasirni oshirish uchun samaradorlikni oshirish uchun kuchli vositadir. Hamkorlikni bajarish yo'lida mavjud muammolar, shu jumladan, iqlim o'zgarish, ijtimoiy barqarorlik, jamoaviy mas'uliyat va jamoaviy harakatlar orqali hal etilmoqda.

Umumiy holatda, raqamli, yashil va innovatsiya iqtisodiyotlarining bir-biriga to'g'ri kelishuvi yangi barqaror rivojlanishning yangi tendensiyalarini shakllantiradi. Raqamli texnologiyalar, yashil texnologiyalar, innovatsiya, doirasiz iqtisodiyot prinsiplari, barqaror moliya va hamkorliklar yana barqaror va inkluziv mustaqil mustaqil kelajakka yo'l ochadi. Ushbu tendensiyalarni qabul qilish, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy yaxshi-ahvolni ta'minlashga olib keladi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гришагов К.Р. Понятие устойчивого развития промышленного предприятия // Экономика - 2013. -N-' 3 - С. 31-34.
2. Кузнецов О.Л. Устойчивое развитие: научные основы проектирования в системе природа —общество — человек СПб : Наука 2008. 240 с
3. Розенберг И.В. Социокультурная составляющая понятия «Регион» // Аналитика культурологии. 2005. N.' 4. С. 148-150
4. Сигов И.И. Региональная экономика (понятийный аппарат). СПб.: ИРЭ РАН, 2000. С. 65



5. Gayibnazarova Z.T. mamlakatimiz sanoat korxonalarini barqaror rivojlanish mexanizmi asoslari va takomillashtirish yo‘llari: Monografiya- T.: Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti, 2023.-146 b.
6. Shi Yin, Lirui Liu and Tahir Mahmood. NewTrends in Sustainable Development for Industry 5.0: Digital Green Innovation Economy. Green and Low Carbon Economy. <https://doi.org/10.47852/bonviewGLCE32021584>